



XALQ DEPUTATLARI XONQA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 6-mart

VII-29-31-12-175-K/26

Xonqa tumani

2026-yilda Xonqa tumani bo'yicha "Alkogol mahsulotlari"ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkogol mahsulotlari"ni realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-387-sonli qarori 2-xatboshi "V"-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga "Alkogol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkogol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Xonqa tumani hududida "Alkogol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkogol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'implarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xonqa tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i (E.Kurbanov), Xonqa tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari (J.Ro'zmetov), tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i (D.Qo'chqorov) bilan birgalikda mazkur qaror o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining "Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi S.Rahmanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**ABDIRAMANOV
XAJIBAY
RO'ZIYEVICH**

Xalq deputatlari Xonqa tumani
Kengashining
2026-yil 6-martdagi
VII-29-31-12-175-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Xonqa tumani hududida “Alkohol
mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda
umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkohol mahsulotlari”ni
(bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari**

T/r.	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy Stavka (O‘RQ-1105 2025-yil 25- dekabr 9-ilova)	Qo‘llanilgan koeffitsiyent (1,2 gacha)	2026-yil uchun yig‘im stavkasi
1	Alkohol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	<u>1,2</u>	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkohol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	<u>1,2</u>	180 000